



MEDIADA MAVZU TANLASH, FAKT TO'PLASH, YOZISH, TAHRIR VA YETKAZISH SAN'ATI TALABLARI

Shamaqsudova Saodat Xidoyatovna

O'zJOKU dotsenti,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

Annotatsiya: *Maqolada mediamatn yaratish jarayonlari: mavzu izlash va topish, fakt to'plash va ularni saralash, yozish, matn yaratish, uni qayta ko'rib chiqish, tahrir va tahlil qilish, yozma matn tahririning o'ziga xos tamoyillari ochib berilgan. Shuningdek, jurnalist nutqining mukammalligini ta'minlovchi omillarning asosiysi adabiy til me'yorlari ifodalangan.*

Kalit so'zlar: *mediamatn, mavzu, fakt, adabiy til, yangilik, xabar, muharrir, lison.*

Аннотация: *В статье описаны процессы создания медиатекста: поиск и нахождение темы, сбор и отбор фактов, написание, создание текста, его доработка, редактирование и анализ, конкретные принципы редактирования написанного текста. Также основными факторами, обеспечивающими совершенство речи журналиста, являются нормы литературного языка.*

Ключевые слова: *медиатекст, тема, факт, литературный язык, новость, информация, редактор, язык.*

Abstract: *The article describes the processes of creating a media text: searching and finding a topic, collecting and selecting facts, writing, creating a text, its revision, editing and analysis, specific principles for editing a written text. Also, the main factors ensuring the perfection of a journalist's speech are the norms of literary language.*

Key words: *media text, topic, fact, literary language, news, information, editor, language.*

Jurnalistik asar yaratishda doim bir necha o'zaro bog'liq jarayonlarni e'tiborga olish lozim. Bular mavzu izlash va topish, asar konsepsiyasini shakllantirish hamda rivojlantirish va nihoyat uning g'oyaviy jihatini aniqlashni o'z ichiga oladi. Ushbu jarayonlarda yoziladigan material obyektini tanlash, hayotiy taassurotlarni to'plash, material rejasini tuzish va uning g'oyaviy yo'nalishi bilan bog'liq masalalar hal etiladi. Bu esa jurnalistning keyingi bosqichlarda amalga oshiradigan ishlariga ham ta'sir ko'rsatadi.

Jurnalist auditoriya bilan har xil paytda, har xil mavzuda muloqotda bo'ladi. Uning omma bilan muloqoti ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy kabi mavzularda bo'lishi mumkin. Tayyorlanayotgan material xoh ilmiy-publitsistik, xoh diniy-ma'rifiy, xoh siyosiy-badiiy yo'nalishda bo'lsin, jurnalist kontent tayyorlashga kirishar ekan, u quyidagi jarayonlarni chetlab o'tolmaydi.





1. Mavzu tanlash. Bu maqsadni to'g'ri belgilash demakdir. Ko'rsatuvga asos qilib olingan, ko'tarilayotgan muammo davr taqozosi ekanini yoddan chiqarmaslik kerak. Uning dolzarbligini, ijtimoiy hayot bilan qay darajada bog'langanini yaxshi anglash lozim. Masalaning mohiyatiga chuqur kirib borish, "kecha", "bugun", "erta" nuqtai nazaridan razm solish, unga ta'sir etuvchi ijobiy yoki salbiy holatlar bilan qiziqish mediamatn mavzusini chuqur yoritishning omillaridandir.

Nashr qilinadigan asarni tasavvur etishda jurnalist, birinchi navbatda, mavzuni belgilab olishi kerak. V.M.Goroxov fikricha, jurnalistik mavzu har doim "aniq ko'rsatilgan funksional vazifaga ega. Badiiy asar mavzusi bilan taqqoslanganda gazetadagi publitsistik asar mavzusi me'yordaligi va ijtimoiy talabga javob berishi bilan farq qiladi. Publitsistning matbuotdagi maqolasi mavzusi auditoriyaning dolzarb ijtimoiy ehtiyojlariga bevosita javob sifatida tug'iladi" [1, 63].

Mavzu ustida ishlash jarayonida turli metodik vositalar, bilishning turli usullari, qahramon bilan suhbat, auditoriyaga axboriy ta'sir qilish usullari keng qo'llaniladi. Aksariyat jurnalistik materiallar murakkab mavzularga bag'ishlangan bo'lib, ularni ishlab chiqish jurnalistdan katta ijodiy mehnatni talab qiladi.

Mavzu ustida ishlashda hujjatlarga tayaniladi. Ular jurnalist fikrlarini ijodiy aks ettirishga yordam beradi. Murakkab, ziddiyatli vaziyatlar haqidagi materiallar mavzusi ustida ishlash ancha qiyin kechadi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, jurnalistikaning tematik asoslariga xos bo'lgan ijodiy imkoniyatlar cheksizdir. Hatto eng oddiy mavzu ham muammoning ijobiy yechimini topishda xolislikni shart qilib qo'yadi.

Mavzuning dolzarbligi va jamiyat uchun siyosiy yoki iqtisodiy ahamiyat kasb etishi – jurnalistik faoliyat muvaffaqiyatining zarur sharti sanaladi. Shuningdek, mavzu tanlash – amalga oshirilishi kerak bo'lgan holat, biroq muvaffaqiyat garovi emas. Faqat mavzu ustida ishlash, uni o'zlashtirish jarayonida, jurnalistik ijod sirlarini yetarli o'zlashtirgan holda mavzu chuqur va ishonchli tarzda ochib beriladi.

Ko'p hollarda kundalik nashr qilinadigan gazetalarda mavzular takrorlanadi. Bunday holda, "... asosiysi – mavzuni chuqurlashtirishdir. Aynan shu bilan o'quvchi qiziqishlari qondiriladi, aks holda mavzuga qiziqish faqat jamiyat tamonidan ilgari surilgan muammo hal bo'lgandagina yoki eskirgandagina yo'qoladi" [2. 239].

2. Fakt to'plash. Bu bosqich bir muncha murakkab, aniqlikni talab etuvchi jarayon. Mediamatn mavzusini ochishga, yoritishga xizmat qiladigan faktik materiallarni yig'ish, sinchiklab solishtirish, obdon o'rganish asnosida saragini sarakka, puchagini puchakka





ajratish ushbu bosqichda hal etiladi. Tanlangan mavzu, bo'yicha jamlangan faktlar ham mohiyat e'tibori bilan har xil. Ularni zarurligiga qarab - asosiy yoki yordamchi fakt, mavzu qamrovi va hajmiga ko'ra - katta yoki kichik, o'rniga ko'ra - birlamchi yoki ikkilamchi, maqsadiga ko'ra - asosli yoki asossiz, sifatiga qarab - ishonchli yoki ishonchsiz, vazifasiga ko'ra - tasdiqlovchi yoki inkor etuvchi, davriyligiga ko'ra - o'tkinchi yoki davomli, mohiyatiga ko'ra - aniq yoki noaniq, xizmat doirasiga ko'ra - umumiy yoki xususiy, ahamiyatiga ko'ra - ijobiy yoki salbiy, munosabatiga ko'ra - xolis yoki noxolis faktlarga bo'lish mumkin. Anglashilayaptiki, jurnalist mediakontent mavzusini yoritishda faktlarning ana shu jihatlarini ham chuqur o'rganishi kerak.

3. Yozish san'ati. Saralab olingan faktlarni muayyan izchillikda joylashtirish, tasvir va tavsifga tegishli ma'lumotlarni ko'rsatuv ssenariysiga tushirish lozim. Nimadan boshlash, nima bilan tugatishgina emas, balki qanday boshlash va qanday tugatish ham muhimdir. Ko'rsatuvga e'tibor birinchi so'zdan, birinchi lavhadan boshlanadi. Ularning izchilligi, ketma-ketligiga asoslangan holda tomoshabin diqqatini bir maromda ushlab turishga erishish zarur.

Maqola yozishda, avvalambor, ushbu maqola ikki asosiy turkumning qay biriga tegishli ekanligini aniqlab olishimiz lozim. Ya'ni yangilik matnimi yoki o'ziga xos kengaytirilgan maqolami?

Ko'pchilik OAV tashkilotlari aholiga axborot yetkazish uchun xabarlardan foydalanadi. Xabarlar biron bir xodisa yoki muammoni yoritishda ishlatiladi. Uning hajmi asosan bir betdan ko'p bo'lmaydi. Ba'zi OAVlarda muharrirlarning tajribasizliklari yoki vaqt yetishmovchiligi tufayli berilayotgan axborot uzatilgan yangiliklar bilan bir xil (takrorlangan) bo'lib qolishi mumkin. Ko'p xollarda xabarlarni malakali muharrir tomonidan tahrir qilishda vaqt yetishmaydi. Natijada talab darajasidagi materialni chop etish qiyinlashadi.

Har bir xabarning tabiati va mohiyatidan kelib chiqqan holda jurnalist yo'l tanlaydi. Lekin jurnalistning axborot tayyorlashi bilan bog'liq umumiy jihatlar ham yo'q emas. Barcha jurnalistlar yangilikning to'laqonli chiqishi uchun quyidagilarga tayanishi zarur.

- Yangilik asosan, nimadan iborat?
- U o'zi mansub bo'lgan soha bo'yicha fan va texnika tarahqiyotida qanday rol o'ynaydi?
- Uni qanday tajriba almashuvlarda qo'llash mumkin?





- U haqda shu soha mutaxassislarining fikri qanday?

Matbuot matnlarida ogʻzaki nutq unsuri sifatida tasavvur etiladigan xususiyatlar (soʻz va ifodalar, turli xos sintaktik tuzilmalar) koʻp uchraydi. Shuningdek, ularning oʻzaro almashinuvi, ogʻzaki nutqning yozma nutqqa yoki aksincha holatlari (sintagmatik boʻlinishlar, parsellyatli tuzilmalar, uzuq – yuluq bogʻlanishlar) ham mavjud. Bu hol matn tarkiblash va tartiblashning ikki muhim tamoyilini, ogʻzaki va yozma turini farqlash uchun asos boʻla oladi.

Matnni tarkiblash (yaratish)ning ogʻzaki turi ayon bir nutq vaziyati yuqori darajada bogʻliq boʻlsa, yozma tarkiblash vaziyat olish bilan bevosita bogʻliq boʻlmaydi [5. 86].

4. Tahrir qilish. Bu aslida, matnga tegishli boʻlib, uni muharrir nazaridan oʻtkazadi. Telekoʻrstuvning oʻzi esa bir necha mutasaddi xodimlar tomonidan koʻrikdan oʻtkazilib, qoʻshish, qisqartirish, olib tashlash yoki almashtirish mazmunidagi mulohazalar bilan siyqallanadi. Shu asosda montaj qilinadi. Ssenariy matni tahriri ham, telekoʻrsatuv lavhalari koʻrigi ham omixta holda muallif maqsadidan kelib chiqqan holda baholanadi. Shu yoʻsinda shakl va mazmunning birligiga erishiladi. Tahrir, tahlil va koʻrik bu telekoʻrsatuvga jilo berishdir. Teletomoshabinlar tomonidan iliq kutib olinishiga zamin hozirlash yoʻlidagi “bichib-toʻqish”dir.

Yozma matn tahririning oʻziga xos tamoyillari mavjud. Matn tahlili va tahriri jarayonida ifoda vositalarining tanlanish va tarkiblanish tarzi leksik-grammatik va mazmuniy-uslubiy jihatdan ham, aʼmoliy-alohaviy jihatdan ham tanqidiy baholanadi. Bunda muharrirlar toʻgʻri-notoʻgʻri (xato), joiz — nojoiz, joʻyali — nojoʻya, mumkin — mumkin emas, maqsadga muvofiq — maqsadga muvofiq emas qabilidagi tushuncha (baholash amal)laridan foydalanadilar. Shunga qaramay, bu tushunchalar mohiyati, ularni qoʻllash mezonlari aniq va toʻliq belgilangan emas. Shu bois matn unsurlarining tanqidiy tahlilida, xato va kamchiliklarni baholashda til va nutq hodisalari bilan bogʻliq ikki holatni hisobga olish zarur:

Birinchi holat lisoniy vositalarni tanlash va tarkiblash bilan bogʻliq. Bu yoʻnalishdagi tanqidiy tahlil grammatika (til tizimi) qoidalariga va adabiy til maromlariga asoslanib, odatda, toʻgʻri/xato, maromli/maromsiz tarzidagi muqobil baholash amallarini taqozo etadi.



Ikkinchi holat bevosita lisoniy vositalarning matniy qurshovda ishlatilishi (lisoniy voqelik – nutq jarayoni) bilan bog‘liq bo‘lib, odatda joiz/nojoiz, jo‘yali/nojo‘ya, mumkin/mumkin emas, maqsadga muvofiq/muvofiq emas ifodalari orqali baholanadi. Bu tushunchalarni umumlashtirib, “maqsadga muvofiq va maqsadga muvofiq emas” muqobili bilan belgilash mumkin.

Maqsadga muvofiqlik tushunchasi ikki xil talqin etiladi:

- 1) muayyan ijtimoiy-madaniy lisoniy marom bilan daxldorlik;
- 2) mazmundorlik/mazmunsizlik, fahmlanganlik/fahmlanmaganlik tasavvurlari bilan bog‘liqlik sifatleri tushuniladi.

Har ikki talqin mohiyat e‘tibori bilan mantiqiy, a‘moliy-aloqaviy, matniy-uslubiy baholashni nazarda tutadi.

Muharrir faoliyatida faqat lisoniy sezgining o‘zi kamlik qiladi. Lisoniy sezgi tahrir jarayoni samaradorligini to‘liq ta‘minlay olmaydi. Muharrir til tizimi vositalari va qoidalarini yaxshi bilishi, nutq jarayonidagi lisoniy va nolisoniy qonuniyatlari mahorat mezonlarini ilmiy asosda egallagan bo‘lishi darkor [3. 85].

Matn tahriri va tahlilida e‘tiborga olinishi zarur bo‘lgan lisoniy va nolisoniy omillar:

1. Mavzu va voqelik sohasi;
2. Muallif munosabati;
3. Ijtimoiy aloqa sohasi va sharoiti;
4. Matn yaratilgan davr va vaziyat;
5. Muallifning shaxsi, mavqei;
6. Muallif uslubining o‘ziga xosligi;
7. Matnning janriy xususiyatlari;
8. Nutq turlari va shakllarining ta‘siri;
9. Umumxalq tili ko‘rinishlari unsurlari va xususiyatlari ishtiroki;
10. Adabiy til uslubiy vositalari va imkoniyatlari; ishtiroki va vazifasi;
11. Matnning mazmuniy tarkiblanish va qismlarga bo‘laklanish usuli;
12. Matn qurilishidagi nutqiy-uslubiy san‘atlar [4.124].

Ta‘kidlash joizki, bu omillar turli uslubga oid mediamatnlarda turlicha nisbatda namoyan bo‘ladi hamda o‘ziga xos aloqaviy-uslubiy qiymat kasb etadi.

Yetkazish mahorati. Bu asosan, muallif, aniqrog‘i, boshlovchiga taalluqlidir. Material to‘plash, yozish va tahrir ish jarayonlari bilan bog‘liq



bo'lib, ular orqali qilingan harakatning natijasi anglashiladi. Boshlovchi maqsadni bor qilishi ham, yo'q qilishi ham mumkin. Ssenariy matni ta'sirli so'zlab berilishi kerak. Hissiyotdan, mantiqdan mahrum nutq tomoshabin e'tiborini tortmaydi.

Televideniya yetkazish mahorati uning imkoniyati va ifoda vositalari – tasvir, nutq, musiqa, shovqinning umumlashgan holda, bir maqsadga qaratilishi bilan belgilanadi. Ayni paytda, boshlovchi va boshqa ishtirokchilarning nutq texnikasini qay darajada egallangani ham muhim omillardandir. Nafas va ovoz, diksiya, intonatsiya, pauza, urg'u va ritm kabi nutqiy vositalar talabini puxta bilish ham shu maqsadga xizmat qiladi.

Ko'rib o'tganimiz, besh bosqichli jarayon qanchalik pishiq ishlansa, uning nutqiy mahoratga ta'siri shunchalik samarali bo'ladi.

Anglashilayaptiki, jurnalistika, notiqlik o'zaro bog'lii ijod hamda ijro jarayonining uyg'unligida ravnaq topuvchi soha, aytish joizki, san'atdir.

Har ikkalasining asosi, mohiyati nutqiy mahorat bilan belgilanadi. Jurnalist nutqining mukammalligini ta'minlovchi omillardan biri bu uning adabiy til me'yorlariga rioya qilishidir. Adabiy til haqida gap borganda avvalo adabiy til – xalq tilining, milliy tilning oliy shakli deyilgan ta'rifga duch kelamiz. Adabiy tilning oliy shaklligi bu tilning o'ziga xosligida, uning o'ziga xos belgilari va vazifasida ko'rinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Горохов В. М. Закономерности публицистического творчества. – М.: 1975.
2. Иванова Р.Ф. Конкретное социологическое исследование и публицистика // Вопросы теории и практики массовых форм пропаганды. – М.: 1968.
3. Р. Абдусатторов, И. Тошалиев. ОАВ тили ва услуги. -Т.: Ўзбекистон, 2000.
4. Тоҳиров З.Т. Адабий таҳрир. –Т.: Tafakkur bo'stoni, Cho'lpon NNMIU, 2012.
5. Шамаксудова С.Х., Исраил М.И. ОАВда ёзма матн. Нутқ ва мунозара. – Т.: Iqtisod-moliya, 2018.

